

A.Axmedov

Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Abduraupova Madinabonu

301-Gid hamrohligi va tarjimashunoslik guruhi talabasi

XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING TA'LIM SIFATIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS, PISA va TIMSS kabi Xalqaro baholash dasturlarining ta'lim sohasidagi o'rni va uning rivojlanishiga qay darajada hissa qo'shishi haqida fikrlar bayon etiladi. Ta'lim sifatini oshirish va yaxshilash jarayoni mobaynida albatta uni xalqaro baholash dasturlariga tayangan holda amalga oshirish samarali va muhim hisoblanadi. Chunki ular ta'lim tizimi samaradorligini baholash, global standartlarga moslashish va kelajak uchun strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, baholash, dastur, ta'lim standarti.

Ta'lim tizimida eng muhim omillardan biri - uning sifatidir. Va bu sifatga erishish uchun hozirgi kunda katta ko'lamdagi islohotlar ham amalga oshirilmogda. Shu jumladan ta'lim sifatini baholashda Xalqaro me'zonlardan foydalanish eng samarali usul hisoblanadi. Misol uchun PIRLS, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari ta'lim tizimlarini jahon miqyosida baholash va taqqoslashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu dasturlar mamlakatlardagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, jumladan, matematika, tabiiy fanlar va o'qish savodxonligini tekshirish orqali ta'lim sifatini o'lchaydi. Va ularning bilim va ko'nikmalarini obyektiv tarzda baholaydi. Natijalar boshqa davlatlarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslash imkonini berib, ta'lim tizimining qaysi jihatlari rivojlangan yoki rivojlantirilishi kerakligini ko'rsatadi. Ya'ni ushbu baholash dasturlari har bir qatnashuvchi muassasalariga ta'lim sifatini isloh qilishda bir necha imkoniyatlarni beradi. Jumladan, Ta'lim tizimini tahlil qilish - Xalqaro baholash dasturlari milliy ta'lim tizimlaridagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi. Ular o'quvchilarning qaysi sohalarida muvaffaqiyatli ekanligini, qaysi joylarni yaxshilash va qaysi joylarda tuzatishlar kiritish kerakligini ko'rsatadi. Masalan, PISA o'quvchilarning bilimni amaliyotga qo'llash qobiliyatini o'lchaydi, bu esa ta'lim sifatiga uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Baholash natijalari ta'limdagi mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularga e'tibor qaratishga yordam berishi orqali, matematika, o'qish yoki tabiiy fanlar bo'yicha o'quvchilarning qayerda qiynalayotganini bilish imkoniyatiga ega bo'ladi va bunga aniq choralar ishlab chiqiladi.

Xalqaro baholash dasturlari ta'limdagi innovatsiyalarni rag'batlantirishda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etishga turtki beradi. Xususan, xalqaro reytinglarda past natijalarga ega bo'lgan mamlakatlar ta'lim siyosatini qayta ko'rib chiqish orqali natijalarni yaxshilashga intiladi. Va bu orqali yuqori natijalarga erishishadi. Xalqaro dasturlar natijalariga asoslangan holda, yangi pedagogik metodlar, texnologiyalar va o'quv dasturlarini joriy etish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Bu nafaqat dars sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ushbu Xalqaro dasturlar milliy standartlarni baholash hamda shakllantirishda ham katta xizmat qiladi. Baholash dasturlari ta'lim siyosatini dalillarga asoslangan holda shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, PISA natijalari ko'p mamlakatlarni o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqishga va o'qituvchilarning malakasini oshirishga undagan. Va

bu dasturlar milliy ta'lim standartlarini xalqaro talablar bilan moslashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayon o'quv dasturlarini optimallashtirish va o'quvchilarning global mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Ya'ni bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari yordamida o'quvchilarning global mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi baholanadi. Bu esa ta'limni zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirishga xizmat qiladi. Xalqaro baholash dasturlari ta'limdagi tenglikni oshirishda ham juda katta yordam beradi. Aytmoqchimanki bu dasturlar, o'quvchilarning ta'lim olish imkoniyatlaridagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. Bu ta'limdagi ijtimoiy tengsizliklarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon beradi. Xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini oshirish, resurslarni samarali taqsimlash va ta'lim tizimini global talablar bilan uyg'unlashtirishda asosiy vositalardan biridir. Shu sababli, ularning natijalari ta'limni rivojlantirish bo'yicha strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tgan omillar orqali xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xalqaro baholash dasturlari ta'lim sifatini yaxshilashda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Ular ta'lim tizimini rivojlantirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi va mamlakatlarni global ta'lim standartlariga moslashishga undaydi. Shu orqali zamonaviy jamiyatning ehtiyojlariga javob bera oladigan ta'lim tizimlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. Paris: UNESCO Publishing.
2. OECD. (2019). PISA 2018 Results (Volume I-III): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing.
3. Darling-Hammond, L. (2010). The Flat World and Education: How America's Commitment to Equity Will Determine Our Future. New York: Teachers College Press.
4. Hanushek, E. A., & Woessmann, L. (2011). "The Economics of International Differences in Educational Achievement." Handbook of the Economics of Education, 3, 89-200.
5. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., & Foy, P. (2016). "TIMSS 2015 International Results in Mathematics and Science." Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.